

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

RAXMONOV SHERZOD TOLIBOVICH

**IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MAKTABLARI 7-9-SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO PISA
TADQIQOTLARIGA TAYYORLASH
(tabiiy fanlar misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Table of contents of the Doctor of Philosophy (PhD)
Dissertation in Pedagogical Sciences**

Raxmonov Sherzod Tolibovich

Ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-9-sinf o‘quvchilarini xalqaro
“PISA” tadqiqotlariga tayyorlash (tabiiy fanlar misolida)..... 3

Рахмонов Шерзод Толибович

Подготовка учащихся 7-9 классов специализированных
общеобразовательных школ к международным исследованиям «PISA»
(на примере естественных наук)..... 21

Rakhmonov Sherzod Tolibovich

Preparation of pupils of 7-9 grades of specialized general education schools for
international studies “PISA” (on the example of natural sciences) 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

RAXMONOV SHERZOD TOLIBOVICH

**IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MAKTABLARI 7-9-SINF O‘QUVCHILARINI XALQARO PISA
TADQIQOTLARIGA TAYYORLASH
(tabiiy fanlar misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qiyamov Nishon Sodiqovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Ahadov Ma'murjon Sharipovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil "02" dekabr soat 11:00 dagi majlisda bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahar, Universitet xiyobon, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Biokimyo instituti Kimyo binosi 220-xona. Tel.: (+99866) 239-11-40; faks: (+99866) 239-11-51 E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (622-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "20" noyabr kuni tarqatildi.
2023-yil "18" noyabr dagi № 2-raqamli reyestr bayonnomasi)



A.M.Nasimov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

J.R.Uzokov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, PhD

E.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida sifatli ta'lim berishda maktab o'quvchilarini iqtidorini yuksaltirish uchun innovatsion ta'lim resurslarini ishlab chiqish va uni modellashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda yangi PISA texnologiyalardan foydalanilmoqda. Xalqaro baholash PISA tadqiqotlari o'qituvchi va o'quvchilarni tayyorgarligini oshirishda tabiiy-ilmiy savodxonlik, ta'lim sifati va uning samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiyoti raqamli ta'lim resurslari, interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda, Jumladan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar intellektual salohiyatli, iqtidorli, kreativ fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash amaliyotiga, alohida e'tibor qaratilgan. Bunda o'qituvchilar o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha turli zamonaviy yondashuvlarni jamlash, binobarin talabalarining tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashlarini amaliyotga yo'naltirilgan, ta'lim tizimida talabalar uchun funksional savodxonlikni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ faoliyat amalga oshiriladi.

Jahon miqyosida barcha rivojlangan mamlakatlarning ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekani e'tirof qilingan. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar faoliyati o'quv dasturlarini takomillashtirish va qayta ishlashga qaratilgan. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari xalqaro ta'lim talablarga mosligi, talabalarining o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy savodxonligi va kreativ fikrlashini rivojlantirish, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etib, ijobiy natijaga erishishi bo'yicha samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning kompetensiyalardan foydalanish, o'z qobiliyatlari, ijodkorligi, tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishga yo'naltirilgan tadqiqotlar o'tkazish tavsiya qilinmoqda.

Mamlakatimizning xalq ta'lim tizimi o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari vositalarini joriy etish, o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, jahon andozalariga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kimyo fanini o'qitish jarayonida yangi usullar ta'lim muhiti asosida metodlarning takomillashtirilgan mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda.

Shuningdek, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu borada kimyo o'qitishning metodik tuzilmasi, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifati darajasi, kimyo o'qitish mazmunini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik bosqichlari, mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltirilgan axborot-metodik ta'minotni boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi global taraqqiyot davrida har bir darsda o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini va mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, o'qitish samaradorligini va ish sifatini to'xtovsiz oshirib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Kimyo o'qituvchilarining maktabdagi asosiy vazifasi o'quvchilarga faqatgina bilim berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallashlariga ko'maklashishdan iborat. Bunda o'quvchilarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon etishlari va butun kuch-g'ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta'lim-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish zarur. Kimyo o'qitishda o'quvchilar bilimlarini xalqaro baholash (PISA) tadqiqotlari asosida o'zlashtirgan bilimlarni takomillashtirish, bilimlarni mustaqil o'rganish orqali ko'nikma, malaka va kompetensiya, ijodiy fikrlashni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son qarorlari, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, ma'daniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'lida" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda o'quvchilar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik asoslari, axborot- kommunikatsiya muhitida tashkil etish imkoniyatlari sohasida: Omonov X., Anvarova N.A., Dimetova M.K., Ixtiyarova G.A, Mavlyanov A., Nizamova S.A., N.S.Saidaxmedov, kimyo darslarida, mustaqil ta'limini tashkil etish masalalari:, Raxmatullaev N.G., Axadov M., Alimova F.A., Rajabov X.M., Abdimuratov P.S., Abdusamatov A., N.X.Avliyoqulovlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekiston Respublikasining Xalqaro baholash tadqiqotlaridagi ishtiroki, unga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish, savodxonlik darajasini aniqlashga oid topshiriqlar ishlab chiqish kabi masalalar Radjiyev A., Ismailov A.A., Daminov X.J., Shernazarov I.E.va boshqalar ishlari o'z aksini topgan.

MDH, davlatlarida o'quvchilarning elektron ta'lim muhitida mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarish muammosining nazariy, amaliy va metodik aspektlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".

Kurdyumova T.N., Pichugina G.A., Roslova L.O., Sidorova G.A., Kudryavsev T.V., Lunin V.V., Maslou A., Minkova N.O. va boshqalar tomonidan o'rganilgan;

Xorijiy davlatlarda mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali metodikalarini takomillashtirish sohasida Walraven R., Volzhenina N.V., Petropoulou O., S.Sethy, Chang Chi-Cheng va boshqalar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Kimyo darslarida o'quvchilarning bilimlarini nostandart testlari, yozma ishlar, orqali baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, kimyo darslarida o'quvchilar bilimini PISA testlari orqali baholash, ularni xalqaro PISA tadqiqotlariga tayyorlash ko'nikmalarini zamonaviy metodlar bilan rivojlantirish o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy Universiteti rejasining №A-OT-2021-133-raqamli "Kimyo fanidan 3D texnologiyalariga asoslangan interaktiv o'quv qo'llanma yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilarini xalqaro baholash PISA tadqiqotlariga tayyorlash va intellektual salohiyatni oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kimyo o'qitishdagi muammolarni aniqlash va tahlil qilishda 7-sinf o'quvchilarga ko'maklashish va muammolarni bartaraf etish metodlarini aniqlash;

Halqaro baholash PISA tadqiqotlari doirasida 7-9-sinf o'quvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishning yangicha tuzilmasini o'zida jamlagan o'quv-uslubiy va interaktiv elektron-qo'llanma hamda axborot muhitini yaratish;

PISA xalqaro tadqiqotlariga 7-9-sinf o'quvchilarning tayyorlashning kreativ, intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv asosida tahlil qilish;

7-9-sinf o'quvchilarda halqaro baholash PISA tadqiqotlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, omillari va usullar samaradorligini tekshirish, mezon, ko'rsatkichlarini belgilash, natijasini aniqlash.

Tadqiqotning obekti: umumiy o'rta ta'lim maktablari kimyo darslarida 7-9-sinf o'quvchilarning PISA tadqiqotlariga tayyorlash ko'nikmalarini rivojlantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga mamlakatimizdagi jami 11 ta ixtisoslashtirilgan davlat umum ta'lim maktablari va umumiy o'rta ta'lim maktablaridan jami 1344 nafar 7-9 sinf o'quvchilari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti: kimyo darslarida 7-9-sinf o'quvchilarini PISA tadqiqotlariga tayyorlash, mustaqil bilim olish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari mazmuni, shakl, usul va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar va elektron zahiralar qiyosiy tahlil qilinib, so'rovnoma, test, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov natijalari, matematik-statistik, metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

7-9-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda PISA

xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash dasturlaridan foydalanib maktab davrida olgan bilimni hayotida qanchalik qo'llay olishi, o'quvchilarning kimyoviy hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi, kreativ hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilgan;

xalqaro tadqiqotlar doirasida 7-9-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jarayoni kimyoviy topshiriqlarning variativ zanjiri, nostandart PISA topshiriqlarining yangi tuzilmasiga ega o'quv-metodik ta'minotini yaratish asosida takomillashtirilgan;

7-9-sinf o'quvchilarining PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash, kimyo darslarida noan'anaviy yondashuv va ilmiy kompetentlik (bilish, tushunish, amalda qo'llash, tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, tahlil qilish, ijodiy fikrlash, shaxsiy va kasbiy faoliyatida qo'llash)ni rivojlantirish mexanizmini intensiv barqarorligini ta'minlashga asoslangan;

PISA xalqaro tadqiqotlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, omillari va metodlari samaradorligini baholash mezonlari 7-9-sinf o'quvchilarida PISA topshiriqlarini "flepped classes", Stesting ta'lim platformasi (uyda dars muhiti, darsni uy topshiriqlariga asosan tashkil etish) muhitida o'tkazish va olingan yuqori natijalarni individual qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. 7-9 sinf maktab o'quvchilari uchun Kimyo fanidan uchinchi renesans davrida yangicha yondashuvlar asosida PISA xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash jarayonini ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik, didaktik jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan elektron o'quv-metodik ta'minoti yaratildi. O'quvchilar mustaqil ta'limdan foydalanish metodikasini rivojlantirishga qaratilgan elektron o'quv-metodik ta'minoti o'quv axborotlari manbalari, ta'lim natijalarini nazorat qilish, o'rganiladigan jarayon va ob'ektlarni modellashtirish vositasi hisobga olindi. 7-9-sinf o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun kimyo fanidan PISA topshiriqlari ishlab chiqib kimyo ta'limi jarayoniga tadbiq etilgan. Natijada o'quvchilarni ilmiy va amaliy kompetensiyalarni va kreativ faoliyatini shakllantirishga erishilgan

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, hamda, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Maktab o'quvchilarning kimyodan xalqaro baholash PISA tadqiqotlariga tayyorlash metodikasini rivojlantirishning o'qitish jarayoni vosita va sub'ektlari faoliyatini loyihalashtirish asosida ularning didaktik imkoniyatlarini optimallashtirish hamda zamonaviy yondashuvlarga muvofiq holda o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etishga yo'naltirilgan (sinfdan tashqari darslaridagi) mustaqil ta'lim faoliyatini tarkib toptirish bosqichlariga (moslashuvchan, shakllantiruvchi va yakuniy) muvofiq holda tashkil etish va amalga oshirish mexanizmining takomillashtirilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, 7-9-sinf o'quvchilarining PISA tadqiqotlariga tayyorlash kimyo faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishni

kreativ yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv jarayonida qo'llanadigan faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim resursining pedagogik-psixologik, texnik, didaktik talablari, tarkibiy qismlari, yaratish bosqichlari, pedagogik loyihasi, zamonaviy kimyoning fanlararo integratsiyalashuvi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan "Kimyo fanidan PISA tadqiqotlari" metodik ko'rsatmasi orqali ta'lim resursini yaratish, undan foydalanib fanga oid qiziqishi bilan birga o'z kasbiy faoliyatini intellektual salohiyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 7-9-sinf o'quvchilarining PISA tadqiqotlariga tayyorlash, mustaqil bilim olish kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

7-9-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda PISA xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash dasturlaridan foydalanib maktab davrida olgan bilimni hayotida qanchalik qo'llay olishi, o'quvchilarning kimyoviy hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntira olish kompetensiyasi, kreativ hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishning (kreativ, tabiiy-ilmiy) savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy fikrlash qobiliyatlarini yanada yuksaltirishga oid takliflardan "Organik kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlari" nomli elektron-o'quv qo'llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huziridagi Respublika ta'lim markazining 19-maydagi 03-02/3-1834-son ma'lumotnomasi). Natijada, 7-9-sinf o'quvchilarining Xalqaro PISA tadqiqotlariga tayyorlashning metodik va didaktik imkoniyatlari ortgan;

Kimyo darslarida 7-9-sinf o'quvchilarning PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda hamda PISA topshiriqlarini "flepped classes", Stesting ta'lim platformasi (uyda dars muhiti, darsni uy topshiriqlariga asosan tashkil etish) muhitida o'tkazish va olingan yuqori natijalarni individual qo'llash bo'yicha tavsiyalar asosida "Kimyo fanidan amaliy mashg'ulotlar (7-sinf o'quvchilari uchun PISA testlari)" metodik qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 19-maydagi 03-02/3-1834-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish, o'z faoliyatini mustaqil boshqarish va o'z ustida mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta metodik qo'llanma, 1 ta elektron-o'quv qo'llanma; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 105 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, hamda obyekt va predmetlari shakllantirilgan, tadqiqotlarning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi va ishonchliligi belgilangan, tadqiqotlar ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilish, e'lon qilingan ishlar bo'yicha ma'lumotlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Pisa xalqaro baholash dasturining amaliy ahamiyati va uni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida PISA tadqiqotlarining tabiiy fanlar bo'yich qamrov doirasi (science framework) tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni baholash vositalarining asosini tashkil etishi haqida fikr yuritilgan. PISA 2015 tadqiqotida tabiiy fanlar ustuvor yo'nalish bo'lgan. Mazkur fanlar bo'yicha savodxonlik konsepsiyasi avval ishlab chiqilgan tabiiy fanlar doiralarida takomillashtirilgan (OECD, 2006, 2004,1999). PISA 2006 tabiiy fanlar qamrov doirasi 2006-, 2009- va 2012-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda tabiiy fanlar yo'nalishining asosini tashkil etgan. PISA 2015 tabiiy fanlar qamrov doirasi PISA 2006 tabiiy fanlar qamrov doirasining yanada kengaytirilishi, takomillashtirilishi hisobiga yaratildi. PISA 2000-yildan buyon har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi. Navbatdagi tadqiqotlar 2024-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ham qatnashishi ko'zda tutilgan. Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi baholash dasturlari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o'tkazish soha xodimlari zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Shuning bilan bir qatorda, PISA topshiriqlari yetuk tajribaga ega bo'lgan xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bunga o'xshash topshiriqlarni ishlab chiqish uchun tizimli va maxsus bilim talab etiladi. PISA topshiriqlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilmasdan tuzilgan topshiriqlar o'quvchilarga yordam berish o'rniga ularni chalg'itib ham qo'yishi mumkin. Shuning uchun PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e'tiborni alohida olingan PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

PISA tadqiqoti quyidagi xususiyatlarga ega:

- u butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur;
- ta'lim sohasidagi yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri;
- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli (15 yosh 3 oydan 16 yosh 2 oygacha bo'lgan) o'quvchilar ishtirok etadilar;
- o'quvchilarning “mustaqil hayotga tayyorlik” darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

- o'quvchilarning funksional savodxonligi, jumladan, o'qish (matnni tushunish), tabiiy va matematik savodxonligi, shuningdek, ushbu yo'nalishlardagi hayotiy muammolarni hal eta olish ko'nikmalari baholanadi;

- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan axborot to'planadi.

Bundan tashqari, PISA-15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanadi. Tadqiqotning 15 yoshli o'quvchilar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, OECD ga a'zo bo'lgan aksariyat davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi. 2001-yilga PISA tadqiqotlarida "matematik savodxonlik" yo'nalishi ustuvor etib belgilangan.

Ta'limda PISA tadqiqotlaridan uning ta'lim jarayonida tutgan o'rni, mavzularda quyidagi olimlar: A. A. Kuznetsov, A. A. Grechixin, T. M. Lepsova, E. S. Polat, V. A. Vul, V. M. Gasov, A. M. Sigantenko, V. N. Ageyev, M. M. Subbotin, Yu. M. Sivenkov, E. Yu. Semenov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

PISA tadqiqotlari innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun o'qituvchi nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi, balki, axborot uzatish va qayta ishlash mahoratini to'la egallashi, ayni paytda ta'lim oluvchilarda axborot madaniyatini shakllantira olishi lozim.

Hozirgi kunda yangi ta'lim paradigmasi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilim, ko'nikma va malakalarini - o'qitishning shaxs shakllanishidagi rivojlanishini boshqarish darajasiga ko'tarishdan iborat bo'ladi.

Demak, bu jarayonda PISA Xalqaro tadqiqotlari alohida o'rni bo'lib, u ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda yetakchi vosita hisoblanadi, hamda davlat, mehnat bozori va jamiyat ehtiyojlariga eng adekvat (mos) tarzda javob beradi.

Biz olib bormoqchi bo'lgan tadqiqotlar ana shu talablar darajasida bo'lib, kimyo fanidan PISA tadqiqotlarini yaratishga asoslangan;

PISA tadqiqotlari an'anaviy darslarga ko'ra "bir muncha yuqori intellektga" ega bo'lishi zarur, chunki o'qituvchi faoliyatining bir nechta qirralari (zarur holda va kerakli joyda maslahat berish, egallangan bilimlarni mustahkamlashga yordam berish va h.k.) ni imitatsiya(taqlid) qilish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga u o'rganilayotgan fan bo'yicha zarur (qo'shimcha ma'lumotlar) o'quv materiallarini to'laligicha qamrab olgan bo'lishi zarur. Faqatgina fan bo'yicha to'la o'quv ma'lumotlarigina elektron darslikning muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin. Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi: Amerikada o'rta ta'lim 12 yil bo'lib boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o'quvchilarning 88 foizi o'qiydi. Ta'lim muassasalarini davlat va shahar buyudjetlari moliyalashtiradi, Qo'shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7,5 foizi har yili ta'limga sarflanadi. 12 foiz o'quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag'lar va xayriya mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Mamalakatlarda ta'lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo'yicha yoki mashhur kishilar nomi

bilan ataladi. Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko‘chirish uskunalari juda ko‘p joylashtirilgan. Chunki o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang‘ich maktabda har yil sinf o‘qituvchisi o‘zgaradi. Boshlang‘ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq. Ko‘paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi. Amerika maktablaridagi o‘ziga xos usullaridan biri har bir o‘quvchining, “Hisobot kartasi” yuritilishidir. Unda o‘quvchi 10 xil xatti -harakati bo‘yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi. Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o‘quvchilari uchun “Sevimli o‘yinchoq” metodini qo‘llashadi. Bu metodda bolalar o‘yinchog‘ini tariflaydi. Mazkur metodni qo‘llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo‘lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o‘rgatishdir. Amerikada ta’limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo‘lgan davlatda butunlay savodsiz bo‘lgan bolalar ham topiladi. AQSH da ta’lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni damda AQSH pedagogikasidagi:

1. Bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash;
2. O‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurashish;
3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik;
4. O‘quvchini ilk davridanoq kasbga yo‘naltirish;
5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

Yaponiya ta’limidagi:

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash;
2. Kichiktoylar ta’lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
3. O‘quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan e’tibor;
4. O‘qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;
5. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Fransiya ta’limidagi:

1. Maktabgacha tarbiyadanoq o‘quvni predmetlashtirib tashkil etish;
 2. Boshlang‘ich ta’limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish;
 3. O‘quvni didaktik vositalar bilan ta’minlashga berilayotgasmn katta e’tibor;
- O‘quv muassasalarinig turli fermalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta’limga ham ko‘chib bormoqda.

Albatta ta’limga har qanday yangilik, o‘zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi.

O‘zbekiston 2024-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Ya’ni bu yilgi 3-sinf o‘quvchilarimiz 2024-yilda 4-sinf bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o‘rtoqlashishga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning “**Kimyo ta’limida pisa tadqiqotlaridan foydalanish va ta’lim jarayoniga joriy etishning amaliy asoslari**” deb nomlangan ikkinchi bobi bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kimyo fanidan PISA Xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi, PISA dasturining o‘ziga xosligi, kimyo fanidan PISA tadqiqotlarini yaratishga asoslangan.

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kimyo fanidan PISA Xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash metodikasi

PISA sinovlarida to‘rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

1. Bir javobli testlar;
2. Bir nechta javobli testlar;
3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
4. Biror muammoning yechimi bo‘yicha o‘quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo‘ladi, o‘quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o‘quvchi ijodkorligi qo‘llab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o‘quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan.

PISA: Asosiy yo‘nalishlar

O‘qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan ma‘lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma‘lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.

Bu yerda, o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma‘no kasb etadi. Bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rangbarang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o‘zi yashayotgan olamdagi o‘rnini bilishi, matematik jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta‘minlash bu bo‘limning asosiy maqsadidir.

Bu bo‘limdagi **savodxonlik** terminidan bu bo‘lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash emasligini ko‘rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e‘tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intiutiv qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo‘llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko‘nikmalar zarur bo‘lishi mumkin.

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish,

shunga ko'ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko'nikmasini rivojlantirish bu bo'limning asosiy maqsadidir.

Bu savodxonlik asosi bizning maktablarimizda fizika (astronomiya elementlari bilan birga), biologiya, kimyo va geografiya fanlari o'qitilish jarayonida berilishi ko'zda tutilgan.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat va jamiyat oldiga dolzarbligi va qamrovi kun sayin ortib borayotgan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli, tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar, mutaxassislarning o'rni beqiyos. Bunday kadrlar uchun dunyoga yuz tutmoq kerak.

Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for International Student Assessment) – O'quvchilarning savodxonligini baholashning xalqaro dasturi ishlab chiqildi.

PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi, umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilari o'quvchilarda tabiiy fanlardan bilim, ko'nikmalar shakllanishi hamda mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun dastlabki muhim qadam deb hisoblashadi.

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT (OECD)- Organisation for Economic Cooperation and Development) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bor 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba amalga oshiriladi. PISA tabiiy fanlar doirasining asosiy komponentlarini hamda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlikni baholashda qo'llaniladigan topshiriqlarning tuzilishi, mazmunining o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. O'quvchilar topshirqi kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal etishda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalarini namoyish etishlari talab etiladi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish belgilab olindi.

O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment- PISA);

PISA Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.


PISA 2000-yildan buyon har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi. Faqat 2019-2021 yillar oralig'ida butun dunyo bo'yicha Coved-19 epidimeyasi tarqalganligi bois PISA tadqiqotlari o'tkazilmay qoldi. Navbatdagi tadqiqotlar 2024-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ham qatnashishi ko'zda tutilgan.

Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi baholash dasturlari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni shaffof va obyektiv o'tkazish soha xodimlari zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

PISA tadqiqotlari an'anaviy darslarga ko'ra «bir muncha yuqori intellektga» ega bo'lishi zarur, chunki o'qituvchi faoliyatining bir nechta qirralari (zarur holda va kerakli joyda maslahat berish, egallangan bilimlarni musahkamlashga yordam berish va h.k.)ni imitatsiya qilish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga u o'rganilayotgan fan bo'yicha zarur (qo'shimcha ma'lumotlar) o'quv materiallarini

to'raligicha qamrab olgan bo'lishi zarur. Faqatgina fan bo'yicha to'la o'quv ma'lumotlarigina elektron darslikning muvaffaqiyatini ta'minlashi mumkin. Shuningdek, PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi hamda ularning muammoni hal qila olish ko'nikmalarini, masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi yoshlarning fikr-mulohazalari va ular bergan taklif va yechimlarni baholaydi.

